



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”

10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



بوسوزکیم

فايرت بولغاى يردى رعايت
كردى شريف توقساندين
كلم الناس على قدر عقولهم
آندىن خبر

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

Xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiy lirik merosida vazn, badiiyat, qofiya bilan birga radifning o'rni ham muhim ahamiyatga ega. Shoir radifga juda katta vazifalar yuklagan, fors adabiyotining ixtirosi sifatida baholangan radifning turkiy adabiyotdagi o'rnini yaqqol ko'rsatib bera olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. TAT.10 jildlik. 1-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
2. Alisher Navoiy. Badoye' ul-vasat. TAT. 10 jildlik. 3-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
3. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. TAT. 10 jildlik. 2-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
4. Atoulloh Husayniy. Badoyi' us-sanoyi' (Forschadan A.Rustamov tarjimasini) – T., 1981. – B.398
5. Hamroyeva O. Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. – T: BOOKPRINT, 2022. –B. 155.
6. Hamroyeva, O. J. (2022). CLASSIFICATION OF FINE ARTS IN" HADOYIQ US-SIKHR". Scientific reports of Bukhara State University, 2022(1), 47-56.
7. Jalolovna, H. O. CORRELATION BETWEEN THE SCIENCE OF RHYME AND THE SCIENCE OF BADE'. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY, 181.
8. Jalolovna, H. O. (2023). SHAMSIDDIN KAYSI RAZI'S" AL-MO'JAM FI MAOYIRI ASH'AR UL-AJAM" IS AN IMPORTANT SOURCE OF POETICS. Academia Repository, 4(11), 81-86.
9. Насируддини Тўсий. Ми'йар ал-аш'ор. / Ҳозиркунандаҳои чоп У.Тоиров, М.Абдуллоев, Р.Ҷалол. –Душанбе: Ориёно, 1992. – С.122
10. Рашид ад-дин Ватват. Хада'иқ ас-сеҳр фи дақа'иқ аш-ши'р. Перевод с персидского и комментарий и факсимиле Н.Ю.Чалисова. – М.: Наука, 1985. – С.164.
11. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O., Navoiyshunoslik. Darslik. – T.: Tamaddun. 2018. – B. 446.
12. Shamsi Qaysi Roziy. Al-Mo'jam fi ma'oyiri ash'oru-l-ajam. – Dushanbe: Adib, 1991. – Sah. 161.
13. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balog'a. (Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev, J.Jo'rayev) – T.: MUMTOZ SO'Z. 2016. – B. 244.

XALQ MAYDON KULGI SAN'ATI BELGILARINING NAVOIY IJODIDAGI KO'RINISHLARI

Rajabova Ma'rifat Baqoyevna

Filologiya fanlari doktori, professor, Buxoro davlat universiteti

marifat.bakaeva@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/MZSO6966

Annotatsiya. *Xalq maydon kulgi san'ati jamoatchilikning ijodiy faoliyatini namoyon etuvchi muhim maydon bo'lib, u nafaqat madaniy, balki ijtimoiy hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Navoiy o'z asarlarida xalq kulgisini, uning simbolik va estetik xususiyatlarini inobatga olgan holda, insonning ichki dunyosi va ijtimoiy munosabatlarini aniq va ta'sirli tasvirlagan. Maqolada xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *xalq maydon kulgisi, askiya san'ati, hazil, mutoyiba, mazox, "Mahbub ul-qulub".*

APPEARANCES OF THE CHARACTERS OF FOLK FIELD COMEDY ART IN NAVOI'S CREATION

Abstract. *This article explores the role of folk humor in the works of Alisher Navoi, emphasizing its significance as a reflection of public creativity and its impact on both cultural and social life. Navoi's depiction of the inner world and social relationships of individuals is analyzed through the lens of folk humor, considering its symbolic and aesthetic features. The article investigates how elements of folk laughter are integrated into Navoi's literary works, shedding light on their contribution to the understanding of human nature and societal interactions.*

Keywords: *folk field laughter, askiya art, humor, sarcasm, "Mahbub ul-Qulub".*

Insoniyat poetik tafakkuri taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy asarlarining dunyo adabiyotida yuksak miqyosga ko'tarilishida xalq maydon kulgi san'ati janrlarining ta'sirini inkor qilib bo'lmaydi. Qolaversa, buyuk ijodkorning xalq hazil-mutoyibalari tabiati, ijrochilari to'g'risida keltirgan ma'lumotlari ham uning folklor bilimdonlaridan ekanligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, shoir tabiatidagi hazil-mutoyibaga moyillik, so'zga chechanlikni ham bu jihatdan e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Shuningdek, xalq orasida keng tarqalgan ayrim rivoyat va latifalarda Alisher Navoiy nomi keltirilgan bo'lib, ularda ulug' shoirning o'ziga zamondosh ayrim hasadgo'y, ichiqora raqiblari, ijodqor yoki mansabdorlar bilan kechgan kinoyali bahs-munozaralari, kulgili suhbatlari, so'z o'yinlari, kinoyalari bayon etilganligi ham tabiatan hazil-mutoyibaga moyil, so'zga chechanligini dalillay oladi. Alisher Navoiy tabiatidagi mazkur fazilatni zamondoshi G'iyosiddin Xondamir shunday ta'riflaydi: *"...Hazrat sultonning yaqin kishisi bo'lgan ul oliy hazrat (Alloh ul zotning qabrlarini tabarruk qilsin) ba'zida shirin va yoqimli so'zlar chiquvchi tillariga hazil va mutoyibalar keltirib, o'rinli bo'lgan holatlarda latifasifat so'zlarni bayon ipiga terardidar. Bunday so'zlar ul hazratning nozik va muborak ta'bining o'tkirligidan dalolat bergan..."* (Xondamir, 2017: 180).

Alisher Navoiy haqida Xondamir keltirgan ushbu ma'lumot ikki jihati bilan e'tiborlidir. Birinchidan, Alisher Navoiyning xalq og'zaki ijodini, folklorning bevosita kulgiga asoslangan janrlari (askiya, latifa, lof kabilar)ga xos xususiyatlarni chuqur bilganini ko'rsatadi. Darhaqiqat, Alisher Navoiy asarlarida askiya san'ati va uning ko'rinishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ular mazkur sohani chuqur o'rganish uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qila oladi. Ikkinchidan, Alisher Navoiyning "o'rinli bo'lgan holatlarda latifasifat so'zlar" aytishi uning latif so'zlovchi, nozikfahm shaxs bo'lganligidan; uchinchidan, ijodida kulgiga alohida e'tibor qaratganidan dalolat beradi.

Askiya – o'zbek xalq og'zaki ijodining bir janri bo'lib, unda so'z o'yiniga, qochiriqlarga asoslangan holda ikki yoki undan ortiq kishi yoki taraflar musobaqalashadi. Askiya, odatda, to'y-tomosh, sayl, ziyofat kabi yig'inlarda o'tkaziladi (O'TIL, 2006:106). "Askiya" so'zining asosi arab tilidagi "zakiy" so'zidan olingan bo'lib, sof fikrli, o'tkir zehni, zakiy – nozik tabiat bilan fikr yuritish ma'nolarini anglatadi. A.Navoiy asarlarida "askiya" so'zi qo'llanmagan esa-da, biroq xalq kulgi san'ati xususiyatlarini va uning ijrochilari ma'nosini aks etiruvchi quyidagi so'zlar uchraydi: **mutoyiba** – hazil, hazillashish, aksiya; **hazl** – hazillashish, masxara; **mazox** –

hazil-mutoyiba, askiya; **lutf** – muloyimlik, rahmdillik, yaxshi muomala, marhamat; **latoyif** – latifalar go‘zal so‘z va hikoyalar, ajoyib gaplar; **zarofat**– zariflik, nozikfahmlik, xushchaqchaqlik, go‘zallik, ajoyib; qochirim so‘z, hazilnamo so‘z; **bazla** – latifa, chiroyli va yoqimli so‘z, askiya; she‘rni badiiy o‘qish; **bazlago‘** –latifa aytuvchi, askiyachi, kuldiruvchi, hikoyachi; **bazlasanj** – badiiy so‘z ustasi, mahoratli shoir, askiyachi; **bazmafro‘z** – bazmni qizituvchi; **badiha**–o‘ylovsiz, birdaniga aytilgan chiroyli so‘z, misra yoki bayt; **badihago‘ylik** – hozirjavoblik, to‘xtovsiz she‘r aytish; **hazzol** – hazilvon, mazaqchi, qiziqchi.

Keltirilgan istilohlar ichida “**mutoyaba**” so‘zi keng ma’noda qo‘llangan. A.Navoiy bu haqda “Mahbub ul-qulub”ning 74-tanbehida shunday yozadi: “*Mutoyabaki, boisi inbisot bo‘lg‘ay, xushturki, mujibi farah va nishot bo‘lg‘ay. Adosida rakik guftor yo‘q, birovga andin xijolat va ozor yo‘q. Ul zarofat va ibohatdur, andinki o‘tti safohat*” (Navoiy, 1998:106). Keltirilgan iqtibosda mutoyibaga xos qator xususiyatlar sanab o‘tilgan:

- ko‘ngilni bir oz xushlamoq va shodlik, xursandchilik uchun bo‘lsa joizligi;
- hazilda qo‘pol so‘zlar bo‘lmasligi;
- undan hech kim ozor chekmasligi;
- beozor hazil – zariflik belgisi;
- hazilning haddan oshishi aqlsizlik ekanligi.

Mazkur asarning 90-tanbehida o‘rinsiz hazilning salbiy oqibatlari haqida muallif shunday yozadi: “*Hazlg‘a shuru‘din behurmatlig‘ ortar va hazlning nihoyati jidolg‘a tortar. Ko‘p lahv hayo pardasin chok etar va adab va hurmat ahlin bebok. Qila olg‘oncha ta‘zim va adab binosin yiqma va hayo va hurmat xilvatidin tashqari chiqma*” (Navoiy, 1998: 112). Ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy ortiqcha hazil hurmatsizlik belgisi bo‘lib, bunday hazilning oxiri janjal bilan tugashi, ko‘p hazil hayo pardasini chok etishi, insonlarni beburd va beobro‘ qilishini alohida ta’kidlab ko‘rsatadi.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida keltirilgan hazil-mutoyibaga doir bunday fikrlar axloqiy-ta’limiy jihatdan ham juda qimmatlidir. Bundan tashqari, shoirning lirik merosida ham o‘rinsiz kulgining oqibatlari tanqid qilingan baytlarni uchratish mumkin. Jumladan, shoir “Kuch bila kulgudin yiroq sovuqluqqa yovug‘roq, vale kuch bila yig‘lamoq erur andin sovug‘roq” sarlavhali qit‘asida o‘rinsiz kulguni “subhi kozib” (yolg‘onchi tong)ga qiyoslaydi:

Hikmat ahli oldida sovuq sifat yo‘q kimsada,

Subhi kozibdek mahalsiz aylagan kulgu kibi.

Lek mundin ko‘p sovuqdur ashk to‘kmak zo‘r ila

Day yelida qatra-qatra muz tomizg‘an su kebi (Navoiy, 1998, 540).

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida xalq orasidan chiqqan badihago‘y so‘z ijrochilari – *qissaxonlar, go‘yandalar, muammogo‘ylar, zurafolar, nadimlar, badihago‘ylar, voizlar, masxarabozlar, muqallidlar* haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy o‘z davrining so‘z ustalari ijodiga aslo befarq bo‘lmagan. Xususan, asarda og‘zaki so‘z san’atini makammal egallagan hazil-mutoyiba namoyandalari haqida keltirilgan ma’lumotlar askiya janrining tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qila oladi. Jumladan, Sayid G‘iyosiddin, Burhoni Gung, Mavlono Jununiy, Sayid Kozimiy, Mavlono Muhammad Muammoiy, Mavlono Hoji Nujumiy, Xoja Ahmad Mujallid, Mavlono Malik, Mavlono Hamid, So‘fiy Piri Sesadsola, Mavlono Abdurazzoq, Xoja Xovand, Mavlono Muin, Mavlono Burunduq, Mavlono Bilol, Mavlono Muzhir, Mavlono Muqbiliy, Mavlono Nomiy, mavlono Muhammad Badaxshiy, Darvesh Shuhudiy, Mavlono Abdulvose‘, Xoja Sulton

Muhammad, Mavlono Sulaymoniy, Mavlono Xovariy, Mavlono Shihob, Mavlono Shahidiy kabilar haqida keltirilgan ma'lumotlar bu jihatdan alohida e'tiborni tortadi. Yuqorida nomlari qayd qilingan so'z ustalari bilan bog'liq ma'lumotlarda so'z san'atining – bazla, badihago'ylik, tirziq kabi ko'rinishlari mavjudligi, ularning ijrochilari – *bazlago'*, *bazlasanj*, *bazmafro'z*, *nadim*, *muqallid*, *usta zariflar* nomlari bilan atalishi ta'kidlangan.

Nomlari sanab o'tilgan shaxslarga oid qaydlar nazardan o'tkazilsa, Alisher Navoiy hazil va mutoyiba ustalarini "hazzol" deb ko'rsatgani, ba'zilariga nisbatan "hajv va hazl sari moyil", yana qaysilarigadir "mazox va mutoyiba mizojig'a g'olibdur" deya ta'rif bergani kuzatiladi. Jumladan, Sayyid G'iyosiddin haqida adib shunday yozadi: "Sayyid G'iyosiddin – Mashhadning sodoti, balki nuqabosidindur. Ahl va muloyim kishidur. **Mazox va mutoyiba mizojig'a g'olibdur. Sho'xluqdin faylasufvash** va ulvi nasabdin tazvir va buzurg manishlikda beixtiyor tushubtur. Chun Sayyidning humoyun basharalarida sufrat g'olibdur, Sayyid shirg'a ham derlar. Ba'zi maymung'a ham tashbih qilurlar. Faqir xud bu nav' gustoxliqlar qila olmasmen, ammo Mirning markabin ul itga o'xshatibmenkim, anga bir maymunni mindururlar. Agarchi Mirg'a noxush kelur, ammo **hazl** bila o'tkarur. Bu matla' aningdurkim:

Dame az dastiduni vo narastam,

Biyo, soqiyki, yakdam mayparastam.

Mazmuni: "Dunyo tashvishidan bir dam qutilmadim. Kel, ey, soqiy, bir nafas mayparast bo'lay" (Navoiy, 1998:120).

Alisher Navoiy Sayyid G'iyosiddinning mijozi "mazox va mutoyiba"ga g'olibligini ta'kidlar ekan, bu ikki tushunchani bir-biridan farqlagani ko'rinadi. Jumladan:

Mazox – hajv. Bunda tanqid, raqibning nuqsonlari ustidan kulish yoki bo'rttirib tasvirlash xususiyati ustuvorigi namoyon bo'ladi.

Mutoyiba – hazilga yaqinlik. Bunda chiroyli so'z o'yinlari, lutf bilan suhbatdoshiga tegib o'tish, latifa aytish bilan kuldirish ustunlik qilgan.

Sayyid G'iyosiddinga "**sho'xliqdin faylasufvash**" ta'rifining berilishiga ham e'tibor qaratish lozim. Bunday ta'rifning berilishi uning shunchaki "mazox va mutoyiba"ni egallagan shaxs emas, balki so'zning ilohiy qudratini his qilgan va uni o'rnida qo'llay bilgan, kulgu san'atini mukammal egallagan san'atkor ekanligiga dalildir.

Keltirilgan iqtibosda Alisher Navoiy Sayyid G'iyosiddinning tabiatini, hazilga moyilligini juda yaxshi bilgani uchun unga o'zi ham mutoyiba orqali munosabat bildiradi: "ulvi nasabdin tazvir va buzurg manishlikda beixtiyor tushubtur. Chun Sayyidning humoyun basharalarida sufrat g'olibdur, Sayyid shirg'a ham derlar. Ba'zi maymung'a ham tashbih qilurlar. Faqir xud bu nav' gustoxliqlar qila olmasmen, ammo Mirning markabin ul itga o'xshatibmenkim, anga bir maymunni mindururlar" (Navoiy, 1998:120).

Alisher Navoiyning so'z ustalari hazil-mutoyiba san'ati talablariga qay darajada e'tibor qaratishgani yoki uning talablarini qay jihatdan buzganliklari haqidagi bunday fikrlari uning mazkur sohani nechog'lik chuqur bilganligidan dalolat beradi. Masalan, uning Mavlono Abdulvose' haqida: "**Zurafo aning bila mutoyiba ko'p qilurlar. Ul shirin iztiroblar qilurki, yana mu'jibi hazl bo'lur**", – deb yozganiga qarab, hazil-mutoyibaning "shirin iztiroblar" orqali namoyon bo'lishini ijobiy holat deb baholaganini anglash mumkin (Navoiy, 1998:122).

Xoja Ahmad Mujallid haqida: “Xurosonning **sho’x tab’laridin** erdi. Ammo bag’oyat **xabissheva** (yomon, yaramas, iflos, badbo’y) kishi erdi” degan bo’lsa, Mavlono darvesh Mashhadiy to’g’risida “**safih va badzabon kishidur. Ba’zi azizlarni, derlarki, yomon hajvlar qilibdur**”, – deb yozadi (Navoiy, 1998:52).

Xullas, Alisher Navoiy so’z ustalarining ijobiy va salbiy sifatlarini ajratib ko’rsatishda ularning hazil-mutoyibaga munosabatiga ham alohida e’tibor bergani ko’rinadi. “Malolis un-nafois”da qo’llangan hazil-mutoyiba san’atiga aloqador terminlardan yana biri **tirziq**dir. Tirziq so’ziga “Navoiy asarlari lug’ati”da “bir-biriga munosabatsiz ravishda birikkan so’zlar” deb izoh berilgan. Mazkur istiloh asarning to’rtinchi majlisida Mir Sarbarahnaga bag’ishlangan qismida keltirilgan: “Xush tab’ va xush mashrab va xush suhbat va shirin kalom kishidur. ...**G’oyat sho’x tab’lig’idin** tirziq aytmoq qoidasin Mir paydo qildi. Bovujudi bu goh-goh yaxshi tirziqlar ham navish qilurlar” (Navoiy, 1998:109).

Alisher Navoiyning e’tirof etishicha, Mir Sarbarahna “**tirziq**” deb atalmish o’ziga xos poetik shaklga asos solgan. Unga ta’rif berilgan “G’oyat sho’x tab’lig’i” sifatining o’ziyoq Mir Sarbarahnaning so’z ustasi ekanligi va shu tufayli kichik hajmli hazil-mutoyibalarga o’xshash shaklda ijod qilganini ko’rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og’zaki ijodi, uning tarkibiy bir qismi sifatida shakllangan xalq maydon kulgi san’ati bilan bog’liq askiya, latifa singari janrlar ulug’ mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodi g’oyaviy-badiiy takomiliga xizmat qilgan muhim omillardan hisoblanadi. Buni xalq maydon kulgi san’ati belgilarining buyuk shoir ijodidagi ko’rinishlari asoslay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to’plami. XX jildlik. III jild. G’aroyib us-sig’ar. – T.: Fan, 1988.
2. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to’plami. XX jildlik. VII jild. Hayrat ul- abror. – T.: Fan, 1991
3. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to’plami. XX jildlik. XIV jild. Mahbub ul-qulub. – T.: Fan, 1998.
4. Xondamir. Makorim ul-axloq. – T.: Akademnashr, 2017.
5. O’zbek tilining izohli lug’ati. V jildli. I jild. – T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI – AN’ANA TAKOMILI, TARAQQIYSI HAMDA SINTEZI SIFATIDA

Soatova Nodira Isomitdinovna

JDFU professori, f.f.doktori

nodira.soatova@list.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/BVHD7691

Annotatsiya: *Ushbu maqola Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonidagi epik an’analarini o’rganish vositasida Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romanidagi novatorlikni umumlashtirish tadqiqiga bag’ishlangan.*

Kalit so’zlar: *An’ana, adabiy an’ana, epik an’ana, adabiy ta’sir, romantizm, realistik uslub, fantastik tasvir, ijodiy uslub.*

THE EPISTLE OF "FARKHOD AND SHIRIN" IS A PERFECTION, DEVELOPMENT AND SYNTHESIS OF TRADITION

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365